



KREDIT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SOHASIDA 2025-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR HAMDA 2026-YIL UCHUN ASOSIY REJALAR

2025-YIL HISOBOTI

2025-yilda bank tizimi barqarorligini ta'minlashning zamonaviy instrumentlarini joriy qilish, banklar faoliyatini tartibga solishni Bazel standartlari asosida takomillashtirish, shuningdek mikromoliya banki, kafolatlar berish tashkiloti va faktoring tashkiloti institutlarini joriy qilish hamda ular faoliyatini tartibga solish asoslarini belgilashga qaratilgan bir qator muhim qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

I. Inqirozlarni boshqarish va omonatlarni kafolatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

2025-yil 18-fevralda "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, **omonatlarni kafolatlash tizimi** xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan holda tubdan isloh qilindi.

Jumladan, kafolatlangan omonat miqdori **200 mln so'm** etib belgilanib, jismoniy shaxslarning omonatlari bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlarining ham banklardagi mablag'lari kafolatlanishi belgilandi.

Omonatlarni kafolatlash fondi negizida **Omonatlarni kafolatlash agentligi** tashkil etilib, uning vakolatlari hamda moliyaviy imkoniyatlari kengaytirildi.

Shu bilan birga, 2025-yil 23-iyunda O'zbekiston Respublikasining "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, **banklarni sanatsiya qilishning** huquqiy asoslari yaratildi.

Qonun bilan Markaziy bank banklarni sanatsiya qilish bo'yicha **vakolatli davlat organi** etib belgilandi. Shuningdek Qonunda sanatsiya qilish maqsadlari, prinsiplari, sanatsiya qilishda foydalaniladigan vositalar aniq belgilandi hamda banklarni tugatish mexanizmlari takomillashtirildi.

Banklarni sanatsiya qilishda aktiv va majburiyatlarni o'tkazish, oraliq bankni tashkil etish hamda hisobdan chiqarish va konvertatsiya qilish vositalaridan foydalanish tartibi belgilandi.

Mazkur qonun to'lovga qobiliyatsiz bankning xizmatlari uzluksizligini ta'minlashga, bankning omonatchilari va kreditorlari huquqlarini himoya qilishga hamda mamlakat bank-moliya tizimi barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

II. Kredit tashkilotlari orqali tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

2025-yil 11-fevralda "Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Ushbu qonun bilan mikromoliya banki institutini joriy etish, shuningdek mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksincha **transformsiya qilish** uchun huquqiy asoslar yaratildi.

Bundan tashqari, 2025-yil 17-apreldagi O'RQ-1058-son "Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonun bilan faktoring sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar Xususiyl huquqni unifikatsiya qilish xalqaro institutining (UNIDRUA) **Faktoring bo'yicha namunaviy qonunidan** kelib chiqib takomillashtirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga kafolat (kafillik) berish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs – **kafolatlar berish tashkiloti** va faktoring xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxs – **faktoring tashkiloti** institutlari joriy etilib, ular faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish asoslari belgilandi.

Mazkur qonunlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining oshishiga hamda biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali vositalari joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

III. Makroprudensial va prudensial choralarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida hisobot yilida tegishli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan makroprudensial vositalar, shu jumladan qarz yuki (DSTI), kreditning garovga nisbati (LTV) ko'rsatkichlari hamda konsentratsiya limitlariga talablar takomillashtirildi.

Bunda, jismoniy shaxslar uchun **qarz yuki ko'rsatkichi (DSTI)** me'yori **50 foiz**, **kreditning garovga nisbati (LTV)** esa avtokreditlar uchun **75 foiz** va ipoteka kreditlari uchun **80 foiz** etib belgilandi. Shu bilan birga, mikroqarzlarni, kredit kartalar (overdraftlar) hamda avtokreditlarning har biri bank jami kredit portfelining **25 foiz**idan oshmasligi belgilandi.

Qayd etish joizki, 2026-yil 1-martdan boshlab kredit tavakkalchiligini kamaytirish va aholi qarz yuki darajasini maqbul darajada saqlash maqsadida qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichiga (Debt-to-income) doir talab kiritilmoqda.

Shuningdek, kapital monandligini hisoblashda tavakkalchilik darajalari jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari (**35-150 foizgacha**) va avtokreditlar (**100-200 foizgacha**) bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichi (DSTI) va kreditning garovga nisbati (LTV) asosida, boshqa kreditlar bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichi (DSTI) asosida o'rnatilishi belgilandi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratishni rag'batlantirish maqsadida banklar tomonidan ularga ajratiluvchi jami qoldiq summasi bank regulyativ kapitalining **0,2 foiz**idan oshmagan, biroq eng ko'pi bilan **15 mlrd. so'm**gacha kreditlarga nisbatan **tavakkalchilik darajasi 75 foiz**gacha pasaytirildi.

Tadbirkorlarga **15 mlrd. so'm**gacha berilgan kreditlar bo'yicha **kafolatlash tashkiloti kafolati** berilganda tavakkalchilik darajasi **50 foiz** etib belgilandi.

Bankka aloqador shaxslar bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish va konsentratsiyalashuvni qisqartirish maqsadida bankka aloqador bitta shaxsga (**15%**) hamda barcha shaxslarga (**25%**) to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdorlariga qo'yilgan talablar qat'iyalashtirildi.

Shu o'rinda, yangi tahrirdagi Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 3697, 2025-yil 28-oktabr) **yirik qarzdorlarga beriladigan kreditlarga** nisbatan **100 foizlik** ("past" xatarli), **125 foizlik** ("o'rta" xatarli) **150 foizlik** ("yuqori" xatarli) tavakkalchilik darajalari o'rnatildi.

Qayd etish o'rinliki, 2025-yilda banklar kapitalining monandligi va likvidlilik koeffitsiyentlariga doir talablar Bazel III standartiga muvofiqlashtirildi.

Ta'kidlash joizki, 2024-2025-yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida O'zbekiston bank-moliya tizimi ilk marotaba kompleks baholashdan o'tdi.

O'zbekistonda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimi Bazel qo'mitasining Samarali bank nazorati bo'yicha 29 ta asosiy tamoyilidan **20 tasi** bo'yicha "ijobiy" deb baholandi hamda berilgan tavsiyalar asosida 2025–2028-yillar uchun "Yo'l xarita"si tasdiqlandi.

IV. O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

O'zbekistonda banklar tomonidan **islomiy moliya xizmatlarini** ko'rsatishga huquqiy asos yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur qonunda islomiy bank faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilash, Markaziy bank va tijorat banklarida islomiy moliya kengashlarini tashkil qilish, islomiy moliya standartlarini joriy qilish, banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalarini belgilab berish, islomiy moliya xizmatlarini soliqqa tortish va islomiy bank faoliyatini tartibga solishga qaratilgan boshqa qoidalar nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun 2025-yil 11-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilingan bo'lib, hozirda Oliy Majlis Senati tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizda islomiy bank faoliyati uchun qonuniy asoslarni yaratish bilan bir qatorda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Jumladan:

Markaziy bank **Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashiga (IFSB)** a'zo bo'ldi;

2025-yilning 17-18 sentyabr kunlari Toshkent shahrida 20-xalqaro islomiy moliya bo'yicha **islomiy moliya olimlari forumi** o'tkazildi;

Markaziy bank va Malayziyaning INCEIF universiteti o'rtasida o'quv dasturlari, trening va seminarlar tashkil qilish, islomiy moliya sohasida birgalikda tadqiqotlar olib borish yo'nalishlarida o'zaro hamkorlik qilishga qaratilgan anglashuv memorandumini imzolandi;

Markaziy bankda Islomiy moliya faoliyati bo'yicha **tematik loyiha ofisi** tashkil qilindi.

V. 2026-yilda kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish sohasida amalga oshiriladigan asosiy islohotlar

2026-yil davomida Markaziy bankning institutsional salohiyatini oshirish, kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish hamda bank tizimi barqarorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mazkur hujjatlarda quyidagilar nazarda tutiladi:

Markaziy bank boshqaruvi a'zolari uchun muvofiqlik mezonlarini belgilash va Markaziy bank maqsadlari ustuvorliklarini aniqlashtirish;

nazoratga oid ustuvor yo'nalishlar va bank hisobotlarini oshkor etish orqali tizim shaffofligini oshirish;

konsolidatsiyalashgan nazorat ko'lamini kengaytirish va banklarning yirik investitsiyalarini tartibga solish;

bank aktivlarini tasniflash amaliyotini **Bazel standartlari** hamda **9-son MHXS** asosida takomillashtirish;

banklarda **korporativ boshqaruvga** oid talablarni takomillashtirish;

bank xizmatlari va operatsiyalarini **outsorsingga berish** bo'yicha talablarni belgilash;

banklar moliyaviy ahvolini tiklash rejalarini tartibga solish mexanizmlarini joriy qilish;

kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya to'lashni tartibga solish;

sanatsiya qilish mexanizmini amalda qo'llashni tartibga solish;

islomiy moliya standartlarini ishlab chiqish;

islomiy bank faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini joriy qilish;

Moliyaviy barqarorlik kengashini tashkil etish.

Bundan tashqari, 2026-yil davomida Markaziy bank tomonidan quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

tizimli ahamiyatga molik banklar uchun sanatsiya qilish rejaları ishlab chiqiladi;

O'zbekistonda faoliyat yurituvchi banklarni nazorat qiluvchi chet el nazorat organlari bilan anglashuv memorandumlari tuziladi;

Islomiy moliya xizmatlari kengashi (IFSB) bilan 2026-2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda islomiy moliya sektorini rivojlantirishga qaratilgan "yo'l xarita"si ishlab chiqiladi;

Markaziy bank Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotiga (AAOIFI) a'zo bo'ladi.